

XALQ TABOBATIDA ANTIGELMINT XUSUSIYATLI DORIVOR
O'SIMLIK LARDAN JADVAL ASOSIDA O'RGANISH VA ULARDAN YIG'MALAR
TAYYORLASH

Mehmonxo'jayev Yoqubxo'ja Ne'matxo'ja o'g'li

Namangan davlat universiteti

Dorivor o'simliklar yetishtirish mutaxassisligi 2-bosqich magistranti

Annotatsiya: Hozirgi kunda yer yuzida dorivor o'simliklarning 10-12 ming turi borligi aniqlangan, shulardan 1000 dan ortiq turining kimyoviy, farmakologik va dorivorlik xossalari o'rganilgan. Bu dorivor o'simliklar ichida bir qancha turlari borki, ulardan gelmintoz kasalliklarini davolashda foydalaniladi. O'simliklar o'z tarkibida ma'lum kasallikka shifo bo'la oladigan, kishi organizmiga qandaydir ta'sir ko'rsata oladigan biologik faol moddalar saqlaydi. Mana shu biologik faol moddalar o'simliklarning hamma organlarida bir xil miqdorda to'planmaydi. Ba'zi bir moddalar ko'proq o'simliklarning yer ostki organlarida, boshqalari esa yer ustki organlarida to'planadi.

Kalit so'zlar: dorivor, antigelmint, gijja, dastarbosh, askarida, ostritsa, paporotnik, shuvoq.

**БОТАНИЧЕСКАЯ КЛАССИФИКАЦИЯ ЛЕКАРСТВЕННЫХ РАСТЕНИЙ С
ПРОТИВОГЕЛЬМИНТНЫМИ СВОЙСТВАМИ В НАРОДНОЙ МЕДИЦИНЕ**

Аннотация: В настоящее время на земле насчитывается 10-12 тысяч видов лекарственных растений, изучены химические, фармакологические и лечебные свойства более 1000 видов. Среди этих лекарственных растений есть несколько видов, которые применяют при лечении глистных заболеваний. В растениях содержатся биологически активные вещества, способные излечивать некоторые заболевания и оказывать определенное влияние на организм человека. Эти биологически активные вещества не собираются в одинаковом количестве во всех органах растений. Одни вещества больше накапливаются в подземных органах растений, другие — в надземных.

Ключевые слова: лекарство, антгельминт, червь, дастарбош, аскарида, вешенка, папоротник, полынь.

**BOTANICAL CLASSIFICATION OF MEDICINAL PLANTS WITH ANTIHELMINT
PROPERTIES IN FOLK MEDICINE**

Abstract: Currently, there are 10-12 thousand species of medicinal plants on the earth, and the chemical, pharmacological and medicinal properties of more than 1000 species have been studied. Among these medicinal plants, there are several species that are used in the treatment of helminthic diseases. Plants contain biologically active substances that can cure certain diseases and have some effect on the human body.

These biologically active substances are not collected in the same amount in all organs of plants. Some substances accumulate more in the underground organs of plants, and others in the above-ground organs.

Key words: medicinal, anthelmintic, wormwood, dastarbosh, ascarida, oyster, fern, wormwood

ANTIGELMINT DORIVOR O`SIMLIKLAR

O`simlik nomi	Kimyoviy tarkibi	Ishlatiladigon organi	Yig`ish muddati	
Sarimsoq piyoz (Allium sativum)	Sulfidin, penin, kumarin, vitamin, B5,B6, S PP polisaxaridlar oqsillar yog`lar aminokislotalar sponin polifenolar flonoidlar va pectin	Piyoz	Toz va kuzda	
Kovrak (ferula)	Oqsillar polisaxaridlar vitamin S	Ildizi guli shirasi	Yozda va kuzda	
Jiyda	Shakar furoktoza oqsil fosfor va kaliy tuzlari aninlar bo`yoq va aminokislotalar barglarida askarbin kislotalar	Bargi		
Qora yong`oq (juglans)	Temir fosfor tannin flonoidlar organic kislotalar juglon-yod kabi hidli antifulgan moddalar	Bargi asirlari mavasi va pishmagan yong`oqi	Yoz va kuzda	
Oshqovoq	Vitamin A C E K T PP B1 B2 B5 B6 Oqsil yog` uglevod	Urug`i	Kuzda	
Bo`yimdrin	Vitamin s k karotin fitontsidlar efir moylari glikaloidlari	Gul poyasi	Yoz kuz	
Zangori Evkalipt	Efir moyi, oshlovchi moddalar	Bargi guli	Mevasi yetilganda, bargi hamma vaqt	
Tog`rayhon	Efir moyi, tanid, kaotin, yog` C darmon dorisi , miktro va makro elementlar	Bargi va poyasi	Bahorda	
Dastarbosh	S,karotin V1, V2, V5, V12, RR kalsiy, fosfor,temir,mis yod	Asosan mevasi mevasi	Yoz va kuz	

	oqsil qand			
Sedana	Alkaloid efir moyi	Urug'i	Yoz va kuz	
Yog'oq	Vitamin, C, B, A,E,PP va to'yingan kislotalar, palmitic linolenic linoleic, oleyk va boshqalar. Antioksidatlar	G'orasi	Bahorda	

YIG`MALAR

Antigelmint xususiyatiga ega bo'lgan shifobaxsh yig'malar tarkibidagi xilma –xilligi

1. Sarimsoq (Garlic): 1 choy qoshiq ezilgan yoki mayda to'g'ralgan pishirilmagan sarimsoq suv bilan yutiladi (kuniga bir mahal). Yoki 1 ta sarimsoq kapsulasi kuniga 1 mahal ichiladi. Magniy (Magnesium): Kuniga bir mahal uxlashdan 1-2 soat oldin ichiladi. Dozasi yoshga va odamga qarab belgilanadi. Yoki bo'lmasa, magniy yog'i teriga surtiladi.

2. Gijjalardan butunlay tozalanish uchun 90 kun kerak bo'ladi. Bu uzoqdek ko'ringani bilan aslida juda muhim. Sababi, gijjalar to'xtamasdan tuxum qo'yadi. Ularning birini o'ldirsangiz biroz vaqtdan keyin yangilari tug'iladi va yana ko'paya boshlaydi. 90 kunda esa ularga qarshi samarali kurashsa bo'ladi. Quyidagi usul gijjalardan butunlay tozalanishga yordam beradi va gijjadan tozalanishning to'lin oy usuli deb ataladi. Muhim! Gijjalardan tozalanish protokoli muvaffaqiyatli bo'lishi uchun tozalanishni boshlashdan avval ushbu maqolani o'qib chiqing: "Gijjalarga qarshi kurashni boshlaymiz!" Gijjalardan qutilishning To'lin oy usuli Tozalanish oy to'lishiga 1 hafta qolganda boshlanadi. Buning uchun mana bu kalendaridan foydalansa bo'ladi: To'lin oy kalendari Tozalanishning 1- haftasi ohirida oy to'lishi kerak. 2-hafta oy to'lgandan keyingi hafta hisoblanadi. Tozalanishning 3-haftasi ohirida yangi oy chiqadi va 4-haftasi esa yangi oy chiqqandan keyingi hafta hisoblanadi. Hisobda adashmaslik uchun mahsus kalendari tutib, oy to'ladigan kunlarni va tozalanish haftalarini belgilab oling. Quyidagi dozalar kattalar uchundir. 1-HAFTA Oy to'lishiga bir hafta qolganda tozalanishning 1-haftasi boshlanadi. Bu haftada quyidagilar bajariladi. Quyidagi giyoh va qo'shimchalar iste'mol qilinadi (barchasi): Erta tongda yoki uyqudan oldin 1 choy qoshiq aktivirovanniy ugoli (Activated charcoal) 1 stakan (200-250 ml) suv bilan birga ichiladi. Uni ichgandan keyin 1 soat hech narsa eyilmaydi, boshqa giyohlar ham faqat bir soat o'tgach qabul qilinishi mumkin. Uyqudan oldin ichilsa, magniy iste'molidan 1-2 soat keyin och qoringa chilishi kerak. Kuniga bir mahal ichiladi (tongda yoki uyqudan oldin). Qora yong'oq (Cherniy orex/Black walnut): 250 mg dan kuniga 3 mahal Shuvoq (Polini gorikaya/Wormwood): 200 mg dan kuniga 3 mahal Qalampirmunchoq (Gvozdika/Cloves): 500 mg (yarim gramm) dan kuniga 3 mahal (yoki kuniga 3 stakan gvozdikali choy) Berberin moddasi (Berberin/Berberine): 500 mg dan kuniga 3 mahal. Ovqat bilan birga iste'mol qilinadi. Nim (Neem): 300 mg dan kuniga 3 mahal

3. Gelmintozlar organizmda gijjalarni yo'qotish maqsadida ishlatiladigon dorilar. Ular ko'pincha gijjaning turiga qarab buyuriladi, 200-300 gqovoq urig'i yaxshi samara beradi.

Gelmenolepidoz va b. tasmaimon gijjalarga qarshi fenasal preparati ichiladi; keyin tozlovchi huqna qilinadi. Yuqoridagi dorilarni ichish tartibi (nahorda, kechqurun yotishdan oldin ,ovqatdan oldin yoki keyin) va miqdorini tabib belgilaydi; bular ko'pincha preparatning yorlig'ida ham ko'rsatiladi.

4.Anor po'tlog'ini olib , uni yarim soat 0.5 litr suvda past olovda qaynatib , uch marta yarim soat oralig'ida berish kerak. So'ngra 3 soat kutirib surgu dori ichiriladi.

5.Itshgumurt (krushina)o'simligining ildizidan 1 oshqoshiq olib, 1 stakan qaynagan suvga solinadi. Uni 3 soatga sachiqlik bilan o'rab qo'yish kerak. Bolalarga 1 choyqoshiqdan kuniga 3 martadan berish kifoya.

6.Otquloq (shavel) ning 5 kg miqdorini 1 litr suvda qaynatib 2 soat kutiladi. Tayyor bo'lgan aralashmani 2 ho'plamdan ovqatdan oldin icgish tavsiya qilinadi.

7.Shuvoq kukunidan 1 choy qoshiq 0.5 litr qaynagan suvga solinadi, biroz vaqt kutiladi, bolaga ovqatlanishidan oldin yarim soat oldin 2 choy qoshiqdan kuniga 3-4 mahal beriladi.

8.Xom yog'oqning mag'zini olib, 1 stakan qaynagan suvga solib, unga 1 choy qoshiq tuz solinadi. Hosil bo'lgan aralashmani kun davomida ichib yurib, so'ng yumshatuvchi preparatlar ichiladi.

9.Xalq tabobatida qovun yoki tarvuz urug'ini xovonchadan ezib, 1:10 nisbatan suv bilan aralastirib iste'mol qilinsa , gijjalarni yaxshi haydaydi. Gijjalarga qarshi giyoh vosita – timyan yog'i.

Davolash muolajalari 3-4 sikl bo'lib, har bir sikl kattalar uchun 17 kun davom etadi.

10 kunlik uzviy muddat: 3 kun 1 tomchidan, 3 kun 2 tomchidan, 4 kun 3 tomchidan. Timyan yog'i quyidagi sxema bo'yicha qabul qilinadi: birinchi usul –ertalab nahorga ,ovqatdan 1 soat oldin sut, choy, qatiqlik bilan ichiladi.

Ikkinchi usul – yotish oldidan, ovqatdan 3 soat keyin iste'mol qilinadi . Shundan so'ng o'n yetti kun dam olib 18-kundan boshlab yangi siklni xuddi shu tartibda qaytarish kerak.

11.Po'stlog'idan tozalangan 50 gr . qovoqlik urug'i mag'izini maydalab, 50 gr kakao, biroz shakar va bir necha tomchi suv qo'shib xamir qilinadi, undan 20 ta kulcha non pishiriladi, ustiga shakar sepiladi. Davolanishning birinchi kuni hech narsa yetilmaydi va ichilmaydi. Ertasiga och qoringa 1,5-2 oshqoshiqda kastorka moyidan ichiladi, keyin har 10 daqiqada biradan kulcha to hammasi tugaguncha yeyiladi.

12.Kattalar uhun faqat qovoqlik urug'idan iborat ovqatlanish lozim, ya'ni bir kunda uch stakancha qovoqlik urug'ni iste'mol qilsa bo'ladi shunda gijjalar, hatto soliter gijjasi ham tushadi. Qovoqlik urug'i iste'mol qilingandan so'ng ichni haydovchi kastorka ichiladi. Ostritsa gijjalariga qarshi yanchilgan ikki stakan qovoqlik urug'i mag'zini iste'mol qilib, ustidan bir stakan iliq sut,bir soardan so'ng kuchli ich haydovchi dori ichiladi.

13.Qovoqlik urug'ini yengil qovurib, maydalanadi, ovqatdan oldin bir oshqoshiqdan iste'mol qilinadi. Muolaja 30-40 davom etadi

14.Qovurilgan qovoqlik urug'idan kasalninghar yishiga 30 gramm hisibida olib, go'sht maydalagichdan o'tkaziladi, shunga ikki baravar miqdorda

Xulosa. Asirlar davomida odamlar o'zlarining asosiy ehtiyojlarini qondirish uchun tabiatga tayanganlar, oziq-ovqat mahsulotlari, uy-joylar, kiyim-kechak, transport vositalari, o'g'itlar, hushbo'y moddalar va eng muhimi, dori-darmonlar ishlab chiqarish. O'simliklar asosini tashkil etadi, minglab yillar davomida mavjud bo'lgan murakkab anianaviy tibbiyot tizimlari yillar davom etmoqda va insoniyatni yangi dori vositalari bilan ta'minlashda davom etmoqda. Dunyo aholisining 80% birinchi navbatda o'z sog'lig'ini saqlash uchun o'simliklardan olingan dori-darmonlarga tayanadi. Yildan yilga gelmintoz kasalliklari ko'payib bormoqda ularni davolashda dorivor o'simliklardan foydalanish foydaliroq.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Xolmatov H.X. , Qosimov A.I. – “Dorivor o'simliklar”. – T. : «Ibn Sino» nashriyoti, 1994. – b. 251-260, 263-268
2. Xolmatov H.X. , Habibov Z.H. – “O'zbekistonning shifobaxsh o'simliklari”. – T. : «Ibn Sino» nashriyoti, 1990. – b. 115-122
3. Xojimatov Q. X. – “O'zbekistonning vitaminli o'simliklari”. – T. : «Fan» nashriyoti, 1993. – b. 245-252, 274-285
4. В. Р. Ркжило – “Мавкины снадобья”. – Винница. : «УАП ХСЛ ВИНО», 1992. – b. 133-140
5. Haydarov Q. , Hoximatov Q. – “O'zbekiston o'simliklari”. – T. : «O'qituvchi» nashriyoti, 1992. – b. 205-215
6. Xolmatov H.X. , Qosimov A.I. – “Dorivor o'simliklar”. – T. : «Ibn Sino» nashriyoti, 1994. – b. 251-260
7. Xojimatov Q. X. – “O'zbekistonning vitaminli o'simliklari”. – T. : «Fan» nashriyoti, 1993. – b. 245-252
8. Xolmatov H.X. , Habibov Z.H. – “O'zbekistonning shifobaxsh o'simliklari”. – T. : «Ibn Sino» nashriyoti, 1990. – b. 115-122
9. Xojimatov Q. X. – “O'zbekistonning vitaminli o'simliklari”. – T. : «Fan» nashriyoti, 1993. – b. 274-285